

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
ADABIYOT NAZARIYASI VA ZAMONAVIY ADABIY JARAYON KAFEDRASI**

**“ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI” FANI BO‘YICHA
O‘QITUVCHI SILLABUSI**

Tuzuvchi: filologiya fanlar nomzodi, dotsent Abdulla Ulug‘ov

Fan/modul kodi 400.2AN9M	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 2 (bahorgi)	ECTS - Kreditlar 4	
2 semestrda ECTS – Kreditlar soni – 4	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning darajasi 400	Fan/modul turi Majburiy		Modul rahbari Abdulla Ulug‘ov AbdullaUlug‘ov@navoiy-uni.uz	
Universitet kampusi 1-blok	Hafta kunlari Dushanba, chorshanba		Vaqt Kunning birinchi yarmida	
2- semestr	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	“Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)”	<i>60 soat</i>	<i>75 soat</i>	<i>135 soat</i>
	JAMI	<i>60 soat</i>	<i>75 soat</i>	<i>135 soat</i>

Fanning tavsifi:

“Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlarning badiiy-estetik darajasini aniqlash, adabiy qahramon va real hayot kishisi o‘rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi.

Fan adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni, adabiyotning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, adabiyotning tabiiy va ijtimoiy fanlar va san’atning boshqa turlaridan farqi, adabiy turlar va janrlar, ijodkorlarning o‘ziga xos uslubi kabilar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Fan mohiyati:

“Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fanini o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning “bumerang”, “matbuot konferensiyasi” singari ilg‘or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi.

Fanning natijasi:

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba adabiyotshunoslik predmeti va uning tarkibiy qismlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, san’atning paydo bo‘lishi haqidagi nazariyalar, poetik tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, badiiy asar komponentlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san’atlar to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi.

Baholash mezonlari:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YAN dan iborat.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
Og'zaki yoki yozma imtixon	50%	ON, YAN	Savol-javob, loyiha ishi
Mustaqil ta'lim	50%		Taqdimot

Ta'lim berish va o'qitish metodlari:

interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Kalit so'zlar:

adabiyotshunoslik, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, ijtimoiy hayot, mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliylik, mavzu, g'oya, badiiy tasvir, ijodiy metod, ijodkor uslubi.

Mavzular ro'yxati:

**“Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fani bo'yicha
MA'RUZA mashg'ulotlari taqsimoti**

№	Mavzular	Soat
1	Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to'g'risidagi fan..	2
2	Adabiyotshunoslik tarixi	2
3	Badiiy asar. Badiiy asar mavzusi.	2
4	Badiiy asar kompozitsiyasi. Badiiy asar syujeti	2
5	Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati. Badiiy asar tili	2
6	Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri	2
7	Adabiy tur va janrlar	2
8	She'r tuzilishi va she'r tizimlari. Aruz she'r tizimi	4
9	Ijodiy metod va ijodkor uslubi. Adabiy jarayon	2
	Jami	20

**“Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fani bo'yicha
AMALIY mashg'ulotlari taqsimoti**

№	Mavzular	Soat
1	Qadimgi davr adabiyotshunosligi	2
2	Arastu “Poetika”sining o'rganilishi	2
3	Fitratning o'zbek adabiyoti mumtoz namoyandalari ijodiga bag'ishlangan maqolalarini o'qib o'rganish	2
4	Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” darsligi	2
5	Badiiy asarning tarkibiy qismlari	2

6	Badiiy asar matni tahlili (she'r, hikoya matnini tahlil qilishda munozarali dars metodidan foydalaniladi)	2
7	Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari	2
8	Ijodkor uslubi (asari matnini tahlil qilishda munozarali dars metodidan foydalaniladi)	2
9	Matyoqub Qo'shjonov – adabiyotshunos.	2
10	Ozod Sharafiddinov – adabiyotshunos	2
	Jami	20

**“Adabiyotshunoslik nazariyasi (Adabiyotshunoslikka kirish)” fani bo'yicha
SEMINAR mashg'ulotlari taqsimoti**

№	Mavzular	Soat
1	Adabiyotning tur va janrlarga bo'linishi	2
2	Navoiy she'rlaridagi badiiy san'atlar	2
3	Bobur she'rlaridagi she'riy san'atlar	2
4	Cho'lpon she'rlaridagi badiiy san'atlar	2
5	Oybek – adabiyotshunos	2
6	Maqsud Shayxzoda – adabiyotshunos	2
7	G'afur G'ulom she'rlaridagi badiiy san'atlar	2
8	“Jahon adiblari adabiyot haqida” kitobidagi maqolalar tahlili	2
9	A.Oripov she'rlarida Vatan mavzusi talqini.	2
10	Naim Karimovning “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobidagi maqolalar tahlili	2
	Jami	20

FAN BO'YICHA SAVOLLAR TO'PLAMI

1. «Adabiyot» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
2. «Adabiyot» so'zi o'rnida qadimda qanday istilohlar qo'llangan?
3. Adabiyotshunoslik fani nimani o'rgatadi?
4. Adabiyotning quroli nima?
5. Adabiyotning bosh ob'ekti nima?
6. Adabiyotshunoslik qanday tarkibiy qismlardan iborat?
7. Adabiyot tarixida nima o'rganiladi?
8. Adabiyot nazariyasi va adabiyot tanqidchilik nimani o'rganadi?
9. Insoniyat hayotida adabiyot qanday o'rin tutadi?
10. Adabiyot qay tarzda paydo bo'lgan va rivojlangan?
11. Adabiyotshunoslik fani adabiyot tarixida qanday o'rin tutadi?
12. Adabiyotning asosiy ob'ekti nima?
13. Adabiyotshunoslikning asosiy ob'ekti nima?
14. Hozirgi paytda “poetika” termini qanday ma'noni anglatadi?
15. Arastu zamonida “poetika” qanday ma'noni bildirgan?
16. Arastu zamonida “san'at (texne)” so'zi qanday ma'noda qo'llangan?
17. Arastu odamlar bir-biridan qaysi jihatidan farq qiladi, degan?
18. Arastu insonni nima deb ataydi?
19. Arastu san'at asarining paydo bo'lishi xususida nima deydi?
20. Arastu estetik zavqni nima bilan bog'laydi?
21. Arastu go'zallikni qanday tasvirlaydi?
22. Arastu yaxlitlikka qanday ta'rif bergan?
23. Adabiyotda qanday obrazlar yaratiladi?
24. Badiiy obraz nima?
25. Badiiy obrazning qanday turlari mavjud?

26. Qanday obrazlar realistik obrazlar deyiladi?
27. Romantik obrazlarda qanday hususiyatlar etakchilik qiladi?
28. Badiiy to'qima nima?
29. Qahramon va badiiy xarakterda o'rtasida qanday farq mavjud?
30. Badiiy asar qanday qismlardan tashkil topadi?
31. Shakl va mazmun, mavzu va g'oya nima?
32. Syujet va kompozitsiya nima?
33. Adabiyotda qanday mavzular mavjud?
34. Adabiy mavzular va davriy mavzular o'rtasida qanday farq bor?
35. Konflikt nima?
36. Konfliktning qanday ko'rinishlari mavjud?
37. Kompozitsiya nima?
38. Kompozitsiya qanday qismlardan tarkib topadi?
39. Syujet nima?
40. Syujet qanday tarkibiy qismlardan tarkib topadi?
41. Adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar imalardan iborat?
42. Adabiyotda badiiy obraz qanday o'rin tutadi?
43. Badiiy obraz turlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar nimalardan iborat?
44. Badiiy asarlarda badiiy to'qima qanday ahamiyatga ega?
45. Qahramon, personaj, obraz, badiiy xarakter nima?
46. Syujet va kompozitsiya o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
47. Adabiyotda mavzular qanday ahamiyatga ega?
48. Hayot hodisalari va badiiy asar komplekti o'rtasida qanday mushtaraklik bor?
49. Syujet va kompozitsiya o'rtasidagi qanday bog'liqlik mavjud?
50. Badiiy asarda syujet tarkibiy qismlari qanday tartibda joylashishi mumkin?
51. Voqealar tuguni qanday ahamiyatga ega?
52. Voqealar rivoji va voqealar tuguni o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
53. Voqealar rivoji va kulminatsiyasi nima?
54. Voqealar rivoji va echimi o'rtasidagi qanday jarayon kechadi?
55. Ekspozitsiya qanday ahamiyatga ega?
56. Kompozitsiya va syujet o'rtasidagi qanday bog'liqlik bor?
57. Badiiy asarlarda syujet qanday nomoyon bo'ladi?
58. Badiiy adabiyotda konfliktning qanday turlari mavjud?
59. Qahramon ichki kechinmasi va ruhiy konflikti o'rtasida qanday mumiylilik mavjud?
60. Badiiy asarlarda ijtimoiy konflikt qanday ifodalanadi?
61. Realistik va romantik obrazlar orasida qanday umumiylik va farqlar bo'ladi?

FOYDALANILADIGAN DARSLIKLAR VA O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2004.
2. Бахтин. М.М. Литературно-критические статьи. -М.: «Художественная литература», 1986.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2013.
5. Болтабоев Х., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-2 жилд. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2013, 2016.
6. Достоевский Ф.М. Возвращение человека. –М.. «Сов. Россия», 1989.
7. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарк, 1999
8. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.
9. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Тошкент: “Маънавият”, 2010.
10. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Тошкент: “Академнашр”. 2014.

11. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: “Шарқ”, 2007.
12. Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Тошкент: “Турон-иқбол”, 2011.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

13. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018
14. Қуроноу Д., Мамажоноу З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
15. Қуроноу Д., Раҳмоноу Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2008.
16. Шарафиддиноу О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004.
17. Шарқ мумтоз поетикаси (Ҳ.Болтабоев талқинида). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2008.
18. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 2005.
19. Terry Eaglyton. Theory literature. – London, 2010.
20. Уеллек Р., Уоррен О. Теория литературы.-М.: «Искусство», 1978.
21. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi. 2018.
22. Улуғов А. Асл асарлар сеҳри. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 2007.
23. Улуғов А. Қалб қандили – Тошкент: Академнашр, 2013.
24. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: «Ўзбекистон»,1993.
25. Хализев В.Е. Теория литературы. Учебник. – М.: Висшая школа, 1999.

Axborot manbalari

www.litera.ru.
www.literature.uz
www.ziyonet.uz
www.natlib.uz
www.ziyouz.com
www.turonlib.uz

O‘qituvchining kontakt ma’lumotlari

Abdulla Ulug‘ov
AbdullaUlug‘ov@navoiy-uni.uz
Tel: +998 93 385 02 63

O‘qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti – dushanba, chorshanba kunlari kunning ikkinchi yarmida